

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KENESININ  
QARARI**

2023 - yil 14 - fevral

65-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Taxiatosh tumani "Markaziy" MFY hududidan  
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha boshqarmasining 2022-yil 9-sentyabrdagi 20/1193-sonli buyurtma xatini inobatga olib, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunlariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Taxiatosh tumani "Markaziy" MFY hududidagi tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan 0,0552 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha boshqarmasiga ma'muriy bino qurilishi uchun doimiy foydalanish huquqi asosida qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratib berilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha boshqarmasi (M.Yusupov)ga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda:

- ajratilgan yer maydonlariga qurilish loyiha hujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

- ajratilgan yer maydonlarida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

- ajratilgan yer uchastkalarida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo‘lgan huquq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin boshlash vazifalari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (U.Jalelov) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari E.Atashov zimmasiga yuklansin.


**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F. Ermanov**

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining  
2023 yil 14 fevraldagi  
65-13-0-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

Taxiatosh tumani Orayliq MFY Mustakillik kuchasi boyidan Milliy gvardiya qoriqlash xizmati ga mamuriy bino qurilishi uchun tanlangan yer maydoni ushin sxema  
M-6 1:1000



Yer uchastkasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Er uchastkasi axoli punktida joylashgan bolip, janub va garp tomonida naturor joylar joylashgan bolip, sharq va shimol tamonida kop kavatli turor joy va ochiq maydon joylashgan

**Koordinatasi**

- |                               |                               |
|-------------------------------|-------------------------------|
| 1. 42°20'12.69"C 59°35'0.11"B | 3. 42°20'12.85"C 59°35'1.45"B |
| 2. 42°20'13.24"C 59°35'0.64"B | 4. 42°20'12.22"C 59°35'0.98"B |

Yer uchastkasi maydoni: Umumiy 0.0552 ga :

Yer fondi: Tuman hokimligi zaxira yeri

Ta'qiqlanganligi: Yo`q

Qaysi maqsadda foydalansa bo`ladi: **mamuriy bino qurilish uchun**

Yer turi: **Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar**

Ball boniteti: Baholanmagan

Kadastr nomeri: 23:18: : : :